

ESKI O‘ZBEK TILIDA KO‘PLIK SHAKLINING QO‘LLANILISHI**Umarova Kamola Ma’ruf qizi**

Namangan davlat universiteti 1-kurs

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6536852>

Annotatsiya. Ma’lumki, o‘zbek tili leksik tarkibining ma’lum qismini arab va fors-tojik tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tashkil etadi. Ushbu maqolada eski o‘zbek tilida ko‘plik shaklining qo‘llanilishi misollar yordamida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zak-negiz, -lar affiksi, ko‘plik, egalik, kelishik.

ФОРМА МНОЖЕСТВЕННОГО ЧИСЛА В СТАРОУЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. Известно, что часть лексического состава узбекского языка состоит из слов, заимствованных из арабского и персидско-таджикского языков. В данной статье анализируется употребление множественного числа в староузбекском языке на примерах.

Ключевые слова: корень, аффикс, множественное число, притяжательный падеж, винительный падеж.

PLURAL FORM IN THE OLD UZBEK LANGUAGE

Abstract. It is known that a part of the lexical structure of the Uzbek language consists of words borrowed from Arabic and Persian-Tajik languages. This article analyzes the use of the plural in the old Uzbek language with examples.

Keywords: root, affix, plural, possessive, accusative.

Eski o‘zbek tilida ham ot turkumidagi so‘zlar **ko‘plik, egalik, kelishik** kabi grammatik kategoriyalarga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Bu kategoriyalarni ifodalovchi shakllar maxsus affikslar yordamida hosil bo‘ladi va bu affikslarning qo‘shilishida ma’lum tartib mavjud, ya’ni:

Ot (o‘zak-negiz) + ko‘plik affiksi + egalik affiksi + kelishik affiksi

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,

Yig'larimning shiddatin gulbargi xandoning'a ayt.

(Alisher Navoiy)

Otlarda ko'plik shakli asosan **-lar** affiksi yordamida hosil bo'ladi. Eski o'zbek tilida ham bu affiksning asosiy vazifasi *grammatik ko'plik* ma'nosini ifodalashdan iborat bo'lgan:

*Dahr bog'i gullari husnin vafosiz erkanin,
Yuzi gul, jismi suman, ko'yi gulistonig'a ayt.*

(A. Navoiy)

*Yaxshi xotunlar safoyi zuhdidin,
Olam ichra gar yorug'luq bo'lsa fosh,
Yo'q ajab, chunkim arab alfozida,
Istiloh ichra muannasdur quyosh.*

(A. Navoiy)

*Qal'alarni, bo'stonlarni, ko'p makonlarni
Vayron etdi hukmronliq degan kasofat.*

(Dilshodi Barno)

*"Ayollar sochi uzun, aqli qisqadur", degonlarg'a
Tovuqcha aqli yo'q, axlatni titkonlarg'a o't tushsin*

(Anbar Otin)

*Ko'nglung istar yorlar birla hamesha shod bo'l,
Mendin-u kimdinki, ko'nglung istamas ozod bo'l.*

(A. Navoiy)

Ey raqiblar, siz deyursi: "Ishq so'zidin kech-kech".

Men deyurman: "Ishq so'zidin kechmagayman hech-hech".

(Dilshodi Barno)

-lar affiksi ko'plikdan boshqa ma'nolarni ham ifodalagan. Masalan, mavhum tushunchani bildiradigan otlarga qo'shilganda ko'plikni emas, balki *kuchaytirish, ta'kidlash* kabi ma'nolarni ifodalaydi:

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor

Hajrdin dardi-yu lekin vasldin darmoni yo 'q.

(A. Navoiy)

Sho 'x ikki g'izolingni noz uyqusidin uyg'at,

*To **uyqulari** ketsun, gulzor ichida o'ynat.*

(A. Navoiy)

Oshiq o'ldum, bilmadim, yor o'zgalarga yor emish,

*Olloh-olloh, ishq aro mundoq **balolar** bor emish.*

(A. Navoiy)

Ishq dardinmu deyin, hajri nabardinmu deyin,

*Bu qatiq **dardlar** aro vasli davosinmu deyin.*

(A. Navoiy)

-lar affiksi payt bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, grammatik ko'plikni bildirmay, **ravish** ma'nosini ifodalaydi:

*Holo... podshohimiz **zamonlarida** bir bo'sh chordevor topilmas, uyalurmiz.*

(Gulxaniy "Zarbulmasal")

***Yillardan** ham yiroq bo'ldi zulmatli soat,*

Tokay davom etar bundog' alam-razolat

(Dilshodi Barno)

*Garchi **avvallar** niyozimni ko'rub noz etti do'st,*

Lek holo do'stlug' oyinini soz etti do'st.

(Shermuhammad Munis Xorazmiy)

-lar affiksli shakl hurmat ma'nosini ham ifodalaydi:

- *Bizning jamoamizni Abdulloxonning **otalari** birlan bizning **otalarimizning** ayrilg'an yeridin to bizga kelguncha tarixlarni bitmay edilar.*

(Abulg'oziy Bahodirxon "Shajarayi turk")

- *Abulg'azining **o'g'ullari** Anusha Muhammad xan **atlari** kamina atlag'anda o'n to'rt **yoshlarinda** edilar.*

(A. Bahodirxon "Shajarayi turk")

- *Bog'i Navda bir kecha bo'ldum, ani munosib ko'rmay Alisherbekning uylarini tayin qildilar. Hiridin chiqquncha Alisherbekning uylarida edim.*

(Bobur "Boburnoma")

Son, umuman, miqdor bildiruvchi so'zli aniqlovchisi bo'lgan otlarga odatda **-lar** affiksi qo'shilmaydi (ya'ni, **son** + **ot** + **lar**). Lekin ba'zan eski o'zbek tilida bunday hollarda **-lar** affiksi qo'shilishi uchraydi:

- *O'g'uzxon alarg'a uyg'ur ot qo'ydilar, uyg'ur turk tili turur, ma'nisi barchag'a ma'lum turur. Alar kelib, O'g'izxonning etagina **ikki qo'llari** birlan mahkam yopishtilar.*

(“Shajarayi turk”)

- *Qoraxonning inilarining **ko'p o'g'lonlari** bor erdi. Alarni Qoraxondin ayrilur teb, hech kimni ko'nglina kelmas erdi.*

(“Shajarayi turk”)

- *Manga xudo qirq tabaqa yer beribdur. Har tabaqada qirq ming qavm, har qavmda **qirq ming navkarlari** bordur.*

(“Qissasi Rabg'uziy”)

Turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida **-(a)t**, **-(a)n** affikslari bilan hosil bo'luvchi ko'plik shakllari ham qo'llangan:

- *Temurbekning va Ulug'bek mirzoning imoroti va **bog'oti** (bog'lari) Samarqand **mahallotida** (mahallalarida) ko'ptur...*
- *Yaxshi viloyoti va **tumonoti** bor. Buxoroning ham bir qancha **tumonoti** bor...*
- *Harrof va xushxulq kishi erdi. Ba'zi **muomalotta** sharni bisyor rivoyat qilur erdi ...*
- *Tog' va daryosi, jangal va sahrosi, mavozi va viloyoti va **hayvonot** (hayvonlar) va **nabototi** (o'simliklari), eli va tili va yomg'uri va yeli borcha o'zgacha voqe bo'lubtur.*

(“Boburnoma”)

Ma'lumki, o'zbek tili leksik tarkibining ma'lum qismini arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi. Bu so'zlarning asosiy qismi ot turkumiga mansub bo'lib, ularning ko'pchiligi ko'plik shaklida o'zlashgan. Masalan:

- | | |
|------------------------------|------------------------------|
| ➤ Ahvol (birligi – hol) | ➤ Atfol (birligi – tiftl) |
| ➤ Avlod (birligi – valad) | ➤ Bihor (birligi – bahr) |
| ➤ A'zo (birligi – uzv) | ➤ Dafotir (birligi – daftar) |
| ➤ Xaloyiq (birligi – xoliqa) | ➤ Ushshoq (birligi – oshiq) |
| ➤ Ulamo (birligi – olim) | ➤ Vuzaro (birligi – vazir) |
| ➤ Ahbob (birligi – habib) | ➤ Yoron (birligi – yor) |
| ➤ Asror (birligi – sir) | ➤ Ag'yor (birligi – g'ayr) |
| ➤ Javohir (birligi – javhar) | ➤ Umaro (birligi – amir) |
| ➤ Avroq (birligi – varaq) | ➤ Salotin (birligi – sulton) |

- *Nokas-u nojins **avlodin** kishi bo'lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o'lmas kasofat olami.
Kim, kuchuk birla xo'dukka necha qilsang tarbiyat,
It bo'lur, dog'i eshak, bo'lmaslar aslo odami.*

(A. Navoiy)

- *Ishq **asrorini** pinhon aylaram **ag'yor** aro,
Bir musulmondurki, dinin yoshurur **kuffor** aro.*

(Amiriy)

- ***Umarosi** ...yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi edi.*

(“Boburnoma”)

- *Za'f aro **ushshoqg'a** ibrat bo'lubman, ohkim,
Ko'zga **ahvoli** nazorim yor ilmaydur hanuz.*

(Munis Xorazmiy)

- *Kulonkir sulton ot qo'ymoq sening haddingmu? Bu ot – Humo, Uqob,
Qarchig'ay, Bahrin, Lochin, Itolgu qushlarning **salotinidurlar**, alarga
munosib ot turur.*

(“Zarbulmasal”)

- *Arkoni davlat va a’yonlari hazrat **umaro** va **vuzaro** hozir bo’ldilar.*

(“Guliston bit-turkiy”)

- *Amir **abyotin**, ey mutrib, eshutsun ko’chak-u buzruk.*

(Amiriy)

- *Kelib ko’nglima Majnun, Layli yodi,
Dafotir ustina so’z seli yog’di.*

(Sayfi Saroyi)

- *Netong Majnun mening shogirdim o’lsa,
Ki, **ishq atfolining** ustodi men-men.*

(Munis Xorazmiy)

- *Necha mullo ilm o’qub, rohi **shayotinni** topib,
Chun ribo-vu rishvani yerlar xushdorliq bilan.*

(Boborahim Mashrab)

- *Holo saning so’zing birlan bul qozini o’ltursam, **xaloyiq** ayturlar: qozining
puli uchun o’ldurdi deb malomat qilurlar.*

(“Miftoh ul-adl”)

Eski o’zbek tilida arab va fors-tojik tillaridan o’zlashgan ko’plik shaklidagi so’zlar ko’plik ma’nosida qo’llangan. Bunday so’zlarni ba’zan birlik ma’nosida uqilib, ularga **-lar** affiksini qo’shib ishlatish hollari ham uchraydi:

- *Alqissa, Yapaloq sha’n va shavkat birla to’y olib keldi. Majmuyi **tuyurlar**
jam bo’ldilar.*

(“Zarbulmasal”)

- *O’zmag’ay mundin baloye, bo’lmag’ay mundin batar,
Aqrabolar suhbatimdin or etar, qoshin chatar.*

(Turdi Farog’iy)

- *Kechalar fig’onimdin tinmadi **kavokiblar**,
Arz to samo uzra mojaro Uvaysiyman.*

(Uvaysiy)

- *Qirq, Yuz, Ming aqrabolar* etdilar mandin nufur,
Ne balo baxti qaro-yu toleyi shum Turdiman.

(Turdi Farog'iy)

- *Bu xaloyiqlarga bu sulton ko'rkluk bo'lsa, oni sevarlar, xaloyiqlar* mani tilamaslar.

(“Muftoh ul-adl”)

- *Xastalig'im yaxshi bo'ldi, yoronlar,*
Ko'rmak uchun sizg'adur bir bahona.

(Anbar Otin)

- *Biz turkmandin og'amizning o'g'lonlarin* va viloyatini tiladuq, bermadilar.

(“Shajarayi turk”)

Tilimizda shaklan birlikda bo'lsa ham mazmunan ko'plik ma'nosini ifodalovchi otlar mavjud. Bungay otlarga **-lar** affiksi qo'shilmasa ham ko'plik, jamlik ma'nosini anglayveramiz:

- *Nafing agar xalqqa beshak durur,*
Bilki bu naf o'zungga ko'prak durur ...

(A. Navoiy)

- *Ul mehr chu irtifo' tutqay,*
Majnun qabilasin yorutqay.

(A. Navoiy)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, eski o'zbek tilida ot turkumidagi so'zlar *ko'plik, egalik, kelishik* kabi grammatik kategoriyalarni birday qabul qiladi. Shulardan ko'plik shaklini qo'shilishida, ishlatilishida ayrim xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Quyida barchamiz uchun tanish bo'lgan xususiyatlar:

1. Grammatik ko'plik ma'nosini ifodalashi (qal'alar, bo'stonlar, makonlar);
2. Mavhum otlarga qo'shib, kuchaytirish, ta'kidlash ma'nosini ifodalashi (uqubatlar);
3. Payt bildiruvchi so'zlarga qo'shib, ravish ma'nosini ifodalashi;
4. Hurmat ma'nosini ifodalashi (otalari, o'g'illari);

5. Shaklan birlikda va mazmunan ko‘plikda bo‘lgan so‘zlarning mavjudligi (xalq, qabila, el);

Bular eski o‘zbek tili uchun ham hozirgi o‘zbek tili uchun ham birday tegishli bo‘lgan.

Biz uchun bir muncha yangilik bo‘lgan xususiyatlar ham mavjud bo‘lib, bular:

1. Ko‘plik affiksi sifatida $-(a)t$, $-(a)n$ shakllarining ishlatilishi (bog‘ot, mahallot);
2. Arab, fors-tojik tilidan otlarning ko‘plik shaklida o‘zlashishi (ahvol, avlod, a‘zo, ulamo);
3. Ko‘plik shaklida o‘zlashgan so‘zlar birlik shaklida anglashilib, ularga yana *-lar* ko‘plik affiksining qo‘shilib ishlatilishi (ahvollar, avlodlar, a‘zolar)ga duch keldik.

Eski o‘zbek tilidagi A. Navoiy, Bobur, Gulxaniy, Uvaysiy, Anbar Otin, Dilshodi Barno, Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarini o‘qish davomida olgan ma‘lumotlarimizni yanada mustahkamladik. Ko‘plik affiksining tarixiy shakli Boburning “Boburnoma” asarida ko‘plab ishlatilganligining ham guvohi bo‘ldik. Asarlar mutolaasi davomida notanish bo‘lgan so‘zlar lug‘ati bilan ham tanishib, so‘z boyligimizni yanada oshirdik. Eski o‘zbek tilidagi ko‘plik shaklini har tomonlama yoritishga harakat qildik.

LUG‘ATLAR:

- | | |
|-------------------------|-----------------------------|
| ➤ Suman – yasmin | ➤ Mahallot – mahallalar |
| ➤ Shams – quyosh | ➤ Tumonot – tumanlar |
| ➤ Muannas – jenskiy rod | ➤ Harrof – so‘zchi, chechan |
| ➤ Alfoz – so‘z, til | ➤ Xushxulq – yaxshi xulqli |
| ➤ Istiloh – termin | ➤ Muomalot – muomalalar |
| ➤ G‘izol – ohu | ➤ Shar – shariat |
| ➤ Holo – hozirda | ➤ Mavozi – mavzelar |
| ➤ Niyoz – muhtojlik | ➤ Nabotot – o‘simliklar |

- Bog‘ot – bog‘lar
- Ko‘chak-u buzruk – kichig-u katta
- Zoh – yo‘l
- Shayotin – shaytonlar
- Ribo – pulni foizga qo‘yish
- Rishva – pora
- Xushdorliq – xursandchilik
- Tuyur – qushlar
- Chatar – chimirmoq
- Kavokib – yulduzlar
- Arz to samo – yer-u osmon
- Xo‘duk – xo‘tik
- Ag‘yor – boshqalar
- Kuffor – kofirlar
- Mutrib – cholg‘uchi
- Hayvonot – hayvonlar
- Aqrabo – yaqinlar, qarindoshlar
- Nufur – nafrat
- Qirq, Yuz, Ming – urug‘ nomi
- Yoron – yorlar, do‘stlar
- Irtifo‘ – ko‘tarilish, yuksalish; balandlik
- Mehr – quyosh
- Atfol – go‘daklar, yosh bolalar
- Ishq atfoli – yosh oshiqlar
- Umaro - amirlar
- Musohib – yaqin kishi
- Za‘f – kuchsizlik
- Nizor – bo‘sh, nozik
- Abyot – baytlar

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy / So‘z boshi muallifi Muhammad Ali. To‘plovchilar: Qodirjon Ergashev, Ahmadbek Alimbekov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 256 b.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik (1987-2003)
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma asari / [Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev; Muharrir A. O‘ktam] . – T.: Yulduzcha, 1989. – 368 b.
4. Gulxaniy. Zarbulmasal asari. O‘qituvchi nashriyoti. Toshkent, 1972-yil.